

**Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligida joriy yilning
9 oyi bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini
ko‘rib chiqish yuzasidan bajarilgan ishlar to‘g‘risida**

M A’ L U M O T

2024-yilning 9 oyi davomida Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi (keyingi o‘rinlarda – “O‘zbekkosmos” agentligi) tizimida murojaatlar bilan ishlash O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori talablari asosida tashkil etildi va olib borildi.

Tizimida murojaatlar bilan ishlash masalasi joriy yilning 9 oyining har oy yakunida “O‘zbekkosmos” agentligining xizmat majlislarida va har haftada Agentlik direktori huzurida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda tanqidiy muhokama qilinib, murojaatchilar tomonidan ko‘tarilgan masalalarni amaldagi qonunchilikka muvofiq hal qilish hamda xodimlarning kasbiy malakalari va shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berib borildi.

Hisobot davrida “O‘zbekkosmos” agentligiga **jami 11 ta** (*yanvar - 1 ta, fevral - 2 ta, mart - 1 ta (I chorak – 4 ta), aprel - 2 ta, may - 2 ta, iyun - 2 ta (II chorak – 6 ta), avgust – 1 ta (III chorak – 1 ta)*) murojaat kelib tushgan bo‘lib, 2023-yilning shu davriga nisbatan murojaatlar soni **6 taga** oshgan. “O‘zbekkosmos” agentligida murojaatlar sonining oshishiga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kosmik suratlarga bo‘lgan talabning oshib borishi, kosmik sohaga bo‘lgan qiziqish va shu sabab sohani rivojlantirish bo‘yicha turli mazmundagi takliflarni bildirilishi sabab bo‘lgan.

Murojaatlarning **9 tasi** (81,8 %) jismoniy hamda **2 tasi** (18,2 %) yuridik shaxslar tomonidan yo‘llangan.

Jismoniy shaxslar tomonidan yo‘llangan barcha **9 ta** murojaat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi cabinetpm2.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Ishonch telefoni orqali kelib tushgan murojaat) orqali kelib tushgan.

Yuridik shaxslar tomonidan yo‘llangan **2 ta** murojaat “O‘zbekkosmos” agentligining info@uzspace.uz elektron pochtasi orqali qabul qilingan.

“O‘zbekkosmos” agentligiga kelib tushgan murojaatlarning:

4 tasi (36,4 %) shaxsiy uy-joy uchun kadastr hujjatlarini rasmiylashtirishda amaliy yordam ko‘rsatish masalasi (*jismoniy shaxslar murojaati*);

3 tasi (27,2 %) kosmik soha yo‘nalishiga oid takliflar (*jismoniy shaxslar murojaati*);

1 tasi (9,1 %) shaxsiy uy-joy qurilishi (2014-2020-yillar kesimida) bo‘yicha kosmik suratlarni taqdim etish (*jismoniy shaxs murojaati*);

1 tasi (9,1 %) MChJga tegishli bino-inshootlar qurilishi (yillar kesimida) bo‘yicha kosmik suratlarni taqdim etish (*yuridik shaxs murojaati*);

1 tasi (9,1 %) qishloq xo‘jaligi sohasida kosmik monitoring bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni taqdim etish (*yuridik shaxs murojaati*);

1 tasi (9,1 foiz) murojaat muqaddam berilgan taklifni ko‘rmasdan qoldirish va ortga qaytarish (*jismoniy shaxs murojaati*) masalasida yo‘llangan bo‘lib, natijalari to‘g‘risida murojaatchilarga o‘z vaqtida ma’lum qilinishi ustidan monitoring o‘rnatildi.

Murojaatlarning **4 tasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi** (*barchasi jismoniy shaxs*), **2 tasi Farg‘ona viloyati** (*jismoniy shaxs*), **2 tasi Toshkent shahri** (*barchasi jismoniy shaxs*), **1 tadan Samarqand** (*jismoniy shaxs*), **Toshkent** (*yuridik shaxs*) va **Buxoro viloyatlaridan** (*yuridik shaxs*) yo‘llangan.

Yo‘llangan murojaatlarning **3 tasida** (27,3 %) ko‘tarilgan talablar **qanoatlan-tirilgan** bo‘lsa, **8 ta** (72,7 %) murojaat bo‘yicha tushuntirish va tavsiyalar taqdim etilgan hamda **huquqiy ma’lumot berish orqali** hal qilingan.

Hisobot davrida Agenrtlik tomonidan murojaatni rad etish, murojaatda ko‘tarilgan masalalarni ko‘rmay qoldirish yoki boshqa davlat tashkilotlariga yo‘llash holati kuzatilmadi.

Joriy yilning 9 oyi davomida “O‘zbekkosmos” agentligi tomonidan murojaatlarni qonunchilikda belgilangan muddatlar ichida ko‘rib chiqilishi va murojaat egalariga javob taqdim etilishi ta’minlangan (*murojaatlarni ko‘rib chiqishda qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan muddatlarning buzilish holati aniqlanmadi*).

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan “O‘zbekkosmos” agentligining yuborgan javob xatlaridan norozi bo‘lish va yuqori idoralar yoki sud organlariga murojaat qilish holati aniqlanmadi.